

Urganch davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti

Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi
fani

“Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi
o’quv fan sifatida” mavzusida



TAQDIMOT ISHI

Ma’ruzachi: Yaqubova D.B.

e.mail: yaqubova.dinara@mail.ru

Urganch-2016





Reja:

1. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi faniga umumiy tavsif.
2. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi o'quv va ilmiy fan sifatida.
3. Jismoniy tarbiyaning rivojlanish tarixi va dastlabki atamalar.




Sport - millatning, butun xalqning siyosati. Xech kimdan kam bo'lmagan avlodni voyaga yetkazish maqsadida boshlagan xayrli ishimiz o'z mevasini beradi.

I.A. Karimov

Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi fani mutaxassislikka yo'naltirilgan **o'quv predmeti** sifatida jismoniy tarbiya mutaxassislari uchun fundamental bilimlar tizimi, inson barkamolligi va unga erishishi hamda boshqarishning umumiy qonuniyatlarini o'rgatadi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi
ilmiy fan tarzida jismoniy tarbiyaga
oid mavjud faktlarni izohlab beradi
va umumlashtiradi.





Amaliy fan sifatida insonni jismoniy kamolotining vositalari, jismoniy tarbiya shakllari va uning usuliyatlari haqidagi amaliy, nazariy bilimlarni beradi, hayotiy zaruriy harakat malakalari va ko'nikmalari zaxirasini boyitadi.



Jismoniy tarbiya

Jismoniy tarbiya - pedagogik jarayon bo'lib, inson organizmini morfologik va funksional jihatdan takomillashtirish, uning hayoti uchun muhim bo'lgan asosiy harakat malakasini, maxoratni, ular bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni shakllantirish va yaxshilashga qaratilgan jarayondir.







Jamiyatning
moddiy hayotiy
sharoitlari,
jumladan ov
jismoniy
tarbiyani
vujudga
kelishida
ob'ektiv sabab
bo'lgan.

Ijtimoiy ongning
rivojlanishi
jismoniy
tarbiyaning
shakllanishida
sub'ektiv sabab
deya qaray
boshlandi.






Jismoniy rivojlanish - bu, inson organizmining asta-sekinlik bilan tabiiy shakllanishi, tashqi ko'rinishi va xizmatining o'zgarish jarayonidir.



Rivojlanish davrini uch fazaga ajratish mumkin: uning yuqori darajasi, nisbatan stabillashgan (barqarorlik) va inson jismoniy imkoniyatlarining asta-sekinlik bilan pasayishi. U tabiatning ob'ektiv konunlariga - organizm va uning yashash sharoitlari birligi qonuniga, xizmat va tuzilish (struktura) o'zgarishlarning bir-birini taqozo etish qonuniga, organizmda asta-sekin miqdor va sifat o'zgarishlari qonuniga va boshqa qonunlariga bo'ysinadi.

Jismoniy rivojlanishning shiddatli (keskin) davri, maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi davrga to'g'ri keladi va butun maktab yoshdagilik davrida davom etadi.




Jismoniy madaniyat - umumiy madaniyatning bir qismi, uning yuksalishi jamiyat rivojlanishining sotsial, iqtisodiy o'sishi darajasiga uzviy bog'liq bo'ladi.




«jismoniy madaniyat» tushunchasining tarkibiy qismi sifatida uch xil yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik jarayonni o'z ichiga oladi:



1. Maktab jismoniy madaniyati - bolalarni jismonan tayyorlash uchun kishilik jamiyati yaratgan va fodalanayotgan moddiy, ma'naviy boyliklari majmuidir



2. Moddiy boyliklar- xilma-xil sport inshootlari, maxsus anjomlar, uskunalar, mablag'lar, jamiyat a'zolarining jismoniy kamoloti darajasi(sport yutuqlari) demakdir.

3. Ma'naviy boylik- esa madaniyat tizimi yaratgan, shakllantirgan g'oyaviy, ilmiy, tashkiliy, amaliy va maxsus ilmiy yutuqlar xisoblanadi.





Jismoniy tayyorgarlik. Jismoniy madaniyatda uchta asosiy yunalish mavjud bo'lib, inson jismoniy madaniyatsi ana usha ram kalar asosida amalga oshiriladi. Ular umumiy jismoniy tayyorgarlik, xunar-kasb jismoniy tayyorgarligi, sport tayyorgarligidir.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik soglikni mustaxkamlashga, keng doirada harakat malakalari va kunikmalariga ega bulishiga, o'zidan keyin gi maxsus taysrgarlikka zamin bulishi uchun xizmat kiladigan asosiy harakat sifatlarnni rivojlantirishga yunaltirilgan

Kasb-xunar jismoniy tayyorgarlighi- bu jismoniy madaniyatning mutaxassislashtirilgan aniq mehnat turi va mudofaa faoliyatiga tayyorlashga yo'naltirilgan jarayondir. Bunda asosan, jismoniy mashqlarning xunar yoki kasbga yaqin bo'lgan turlaridan foydalaniladi.


Umumiy va kasb jismoniy tayyorgarlighi deb ajratish ma'lum darajada shartli bo'lib, ikkala yo'nalish xam bir-birini to'ldiradi.



Sport tayyorgarlighi jismoniy madaniyatda maxsus yo'nalishni ifoda etadi. Buning vazifasi insonni tanlab olingan biror sport turida yuqori natijalarga erishish ta'minlashdir.



 A decorative border made of stylized, hand-drawn flowers and leaves in green and pink, framing the central text.

Sport jismoniy madaniyatining tarkibiy qismidir. Sport, xususan, ahamiyatli darajada jismoniy va unga bog'liq bo'lgan qobiliyatlarning rivojlanishini va o'sishini ta'minlaydi. Jamiyat jismoniy madaniyatining tarkibiy qismii xisoblangan sport, boshlangich ma'noda "kuch sinashaman" , "musobaqalashaman" degan ma'noni beradi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarigacha unga dam olish, ko'ngil ochish, so'ng, jismonan yuqori ko'rsatgichga erishish vositasi, musobaqalarda g'alaba qozonish tarzidagi faoliyat deb qaraldi. Sportning rivojlanishi asosan uch ko'rinishda - o'quv predmeti sifatida, ommaviy ko'ngilli sport, "k a t t a "s p o r t" tarzida ro'y bermoqda.






Jamiyatda jismoniy madaniyatning rivojlanganlik darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan baxolanadi:


- jamiyat a'zolari kundalik turmushga jismoniy madaniyatning singdirilishi:
- jamiyat a'zolarining sog'ligi va jismoniy tayyorgarligi:
- jismoniy madaniyat mashg'ulotlarning moddiy-texnik ta'minlanishining mavjudligi va sifati:
- jismoniy madaniyat harakatiga raxbarlik qilayotgan xodimlarning doimiy tarkibi (shtati), kvalifikatsiyasi va faolligi:
- jamiyat a'zolarining sport yutuqlari.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; T., «O'zbekiston», 1992.
 2. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonuni, 2000.
- O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, 1997.
- Qadrlar tayyorlash milliy dasturi, 1997.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 271-qarori, may, 1999.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Respublika ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazining faoliyatini tashkil qilish to'g'risida»gi qarori, 26 aprel, 1993.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «YOsh avlodni sog'lomlashtirish muammolarini har tomonlama hal qilish to'g'risida»gi qarori, 3 dekabr, 1993.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiy islohotlarni himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni, 21 yanvar, 1994.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonda Olimpiya harakatini yanada rivojlantirish va mamlakat sportchilarini Sidney shahri G'AvsgraliyaG' dagi XXVII Olimpiya o'yinlariga tayyorlash to'g'risida»gi farmoni, 7 iyun, 2000.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Olimpiya shon-shuhrati mo'zeyini tashkil qilish to'g'risida»gi farmoni, 14 avgust, 1996.



E'TIBORINGIZ UCHUN
RAXMAT!

